


TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- YIL YANVAR- SENTABR OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR







2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 28 090 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ulardan korxonalar, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 25,4 % yoki 7 143,3 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022- yildagi ulushiga nisbatan o`zgarishsiz qolib, 10,4 % ni yoki 2926,6 mlrd. so`mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 25163,4 mlrd. so`m yoki jami investitsiyalarning 89,6 % ni tashkil etdi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 7143,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,4 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,7 % i yoki 2735,3 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3353,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi mlrd.soʻmda	2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan %da	Ulushi % da
Toshkent viloyati	28 090,0	125,9	100
Nurafshon sh	1 216,6	101,7	4,3
Olmaliq sh	9 239,2	255,0	32,9
Angren sh	1 085,1	129,2	3,9
Bekobod sh	2 052,3	117,3	7,3
Ohangaron sh	460,2	90,7	1,6
Chirchiq sh	1 407,2	118,3	5,0
Yangiyoʻl sh	288,1	116,3	1,0
Oqqoʻrgʻon t	235,0	83,6	0,8
Ohangaron t	2 120,5	117,2	7,5
Bekobod t	322,6	104,0	1,1
Boʻstonliq t	911,5	89,4	3,2
Boʻka t	216,2	93,7	0,8
Quyichirchiq t	1 632,5	113,0	5,8
Zangiota t	1 332,6	69,8	4,7
Yuqori Chirchiq t	831,7	107,0	3,0
Qibray t	1 519,8	68,7	5,4
Parkent t	291,2	86,3	1,0
Piskent t	396,7	95,7	1,4
Oʻrta Chirchiq t	771,6	147,6	2,7
Chinoz t	267,9	92,0	1,1
Yangiyoʻl t	797,0	115,6	2,8
Toshkent t	694,5	94,9	2,7

Qurilish-mantaj ishlari



Mashina, uskuna, inventar

Boshqa xarajatlar

Toshkent viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha 14891,7 mlrd.so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 53,0 % mashina, uskuna va inventarlarga 10689,8 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 38,1 % ini tashkil etdi, va boshqa xarajatlarga 2508.5 mlrd. so'm 8,9 %i o'zlashtirildi.

73,9 %

Yangi qurilish

16,9 %

Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya


9,2 %

Boshqa yo'nalishlar


Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Oqqo'rg'on tumanida kuzatildi – 87,7 % yoki 206,1 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Piskent tumanida kuzatilib, 17,8 % ni yoki 70,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ohangaron shahrida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 78,5 % yoki 361,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Hududlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSIYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSIYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlarning ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish

manbalari hisobidan 8890 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 31,6 % i o'zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


METALLURGIYA SANOATI
2365,2 mlrd. so'm
Ulushi 27,5 %

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH
1590,4 mlrd. so'm
ulushi 18,5 %

BOSHQA NOMETALL MINERAL MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH
1897,2 mlrd. so'm
ulushi 22,1 %

Tog'-kon sanoatida jami asosiy kapitalga investitsiyaning 31,2 % i yoki 8762,6 mlrd. so'mi Metall rudalarini qazib olish sohasiga tegishlidir.

Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so‘m

	Jami	To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Toshkent viloyati	14 714,5	3 353,8	1129,9	10 230,8
Nurafshon sh	361,7	110,6	26,1	225,0
Olmalik sh	6 695,8	29,4	-	6 666,4
Angren sh	660,7	379,6	-	281,1
Bekobod sh	1 072,3	159,7	-	912,6
Ohangaron sh	168,5	94,8	-	73,7
Chirchiq sh	262,5	148,3	114,2	-
Yangiyo‘l sh	113,3	25,4	33	54,9
Oqqo‘rg‘on t	150,2	-	-	150,2
Ohangaron t	1 330,6	1 330,6	-	-
Bekobod t	101,1	101,1	-	-
Bo‘stonliq t	254,6	26,9	174,7	53,0
Bo‘ka t	78,8	11,6	-	67,2
Quy Chirchiq t	998,4	142,5	33,3	822,6
Zangiota t	597,9	292,7	272,2	33,0
Yuqori Chirchiq t	246,1	155,1	-	91,0
Qibray t	387,7	58,9	248,7	80,1
Parkent t	3,2	3,2	-	-
Piskent t	144,9	2,3	-	142,6
O‘rta Chirchiq t	341,3	37,2	-	304,1
Chinoz t	68,6	23,8	-	44,8
Yangiyo‘l t	494,7	185,4	227,7	81,6
Toshkent t	181,6	34,7	-	146,9

2023- yil yanvar-sentabr oylarida 14 714,5 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 52,4 % ini xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 3353,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 10230,8 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(71) 202-86-70,**